



Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5316,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,2 %), transport xizmatlari (19,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,2 %) ustunlikka ega.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	5316,8	111,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	327,1	111,0
Moliyaviy xizmatlar	767,7	174,1
Transport xizmatlari	1 018,1	104,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	922,3	102,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	108,9	101,5
Savdo xizmatlari	1 764,5	102,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	163,6	102,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	218,3	103,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	105,2	106,3
Ijara xizmatlari	112,3	101,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	150,0	101,6
Shaxsiy xizmatlar	350,7	103,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	86,6	133,6
Boshqa xizmatlar	143,8	101,2




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (174,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (133,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,0 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 983,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 689,5 mlrd, so'mga ko'paydi.

2019 yil yanvar–sentyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (259,0 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (135,2 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (339,3 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 312,9 mlrd. so'm, transport xizmatlari 42,2 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 132,9 mlrd. so'mga oshgan.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (101,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,5 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmati (101,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar- sehtyabr oylarida uning ulushi 33,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) egallaydi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (90,6 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar- sentyabr oylarida uning ulushi 79,3 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,5 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,2 % ni egallaydi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,3 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,7 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Telekommunikasiya xizmati - 96,3 %

Nashriyotchilik xizmati - 2,6 %

Axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 %

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati - 0,3 %

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati - 0,1 %




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 767,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 174,1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (88,9 %) tashkil etadi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 108,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,0 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,2 % ga to'g'ri keladi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	5316,8	111,1
<i>shahar:</i>		
Namangan sh	2880,9	114,9
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	162,2	106,2
Kosonsoy	233,5	106,0
Namangan t	224,2	106,1
Norin	172,7	106,5
Pop	261,1	109,3
To'raqo'rg'on	277,0	110,4
Uychi	204,4	106,6
Uchqo'rg'on	198,8	104,5
Chortoq	225,7	107,4
Chust	251,2	105,2
Yangiqo'rg'on	225,1	105,7




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Hududlar o'rtasida Namangan shahri (2880,9 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Namangan shahri bo'yicha 114,9 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Mingbuloq (162,2 mlrd. so'm), Norin (172,7 mlrd. so'm) va Uchqo'rg'on (198,8 mlrd. so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan sh (114,9 %), To'raqo'rg'on (110,4 %), Pop (109,3 %) va Chortoq tumanlarida (107,4 %), qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahri (114,9 %) va To'raqo'rg'on (110,4 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on (104,5 %), Chust (105,2 %), Yangiqo'rg'on (105,7 %), Kosonsoy (106,0 %) va Namangan (106,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Mingbuloq tumanida (3,1 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Namangan shahri (54,2 %), To'raqo'rg'on (5,2 %), Pop (4,9 %) va Chust (4,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mingbuloq (3,1 %), Norin (3,2 %), Uchqo'rg'on (3,7 %), Uychi (3,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga o'sish sur'ati, %

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1916,5 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 322,8 ming.so'mga oshdi.





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida – 4666,1 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida - 112,5 % kuzatildi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28